



THE ROLE OF THE LOCAL BUDGET IN THE UZBEK SSR AFTER THE SECOND WORLD WAR (A CASE STUDY OF SURKHANDARYA AND KASHKADARYA)

Oysafar Umarovna Majidova

National University of Uzbekistan

Department of Philosophy and Logic, Acting Associate Professor

Doctor of Philosophy (PhD)

oysafar72@gmail.com

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: dialogue, cognitive activity, dialogic education, critical thinking, Socratic method, constructivism, social interaction.

Received: 23.05.26

Accepted: 24.05.26

Published: 25.05.26

Abstract: This article analyzes, from philosophical and pedagogical perspectives, the influence of dialogue on students' cognitive activity in the educational system. Dialogue is interpreted not merely as a teaching method, but as a universal mechanism that constitutes the essence of the cognitive process. The article also substantiates the positive impact of dialogic education on students' critical thinking, independent problem-solving abilities, meta-cognitive skills, and social activity.

TA'LIM TIZIMIDA DIALOGNING BILISH FAOLIYATIGA TA'SIRI

Oysafar Umarovna Majidova

O'zbekiston Milliy universiteti

Falsafa va mantiq kafedrasida dots. v.b.

falsafa doktori (PhD)

oysafar72@gmail.com

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: dialog, bilish faoliyati, dialogik ta'lim, tanqidiy fikrlash, sokrat metodi, konstruktivizm, ijtimoiy o'zaro ta'sir.

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lim tizimida dialogning talabalarining bilish faoliyatiga ta'siri falsafiy va pedagogik jihatdan tahlil qilinadi. Dialog nafaqat o'qitish usuli, balki bilish jarayonining mohiyatini tashkil etuvchi universal mexanizm sifatida talqin etiladi. Maqolada shuningdek, dialogik ta'limning o'quvchilarning tanqidiy fikrlashi, mustaqil muammo yechish qobiliyati, meta-

**ВЛИЯНИЕ ДИАЛОГА В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ НА ПОЗНАВАТЕЛЬНУЮ
ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ****Ойсафар Умаровна Мажидова***Национальный университет Узбекистана**кафедра философии и логики, и.о. доцента**доктор философии (PhD)*oysafar72@gmail.com*Ташкент, Узбекистан***О СТАТЬЕ**

Ключевые слова:	диалог, деятельность, критическое мышление, сократический метод, социальное взаимодействие.	Аннотация:	В данной статье философско-педагогически анализируется влияние диалога в образовательной системе на познавательную деятельность учащихся. Диалог интерпретируется не только как метод обучения, но и как универсальный механизм, составляющий сущность процесса познания. В статье также обосновывается положительное влияние диалогического обучения на развитие критического мышления, способности к самостоятельному решению проблем, метакогнитивных навыков и социальной активности обучающихся.
------------------------	---	-------------------	---

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri – o'quvchilarni faol, mustaqil va tanqidiy fikrlovchi shaxs sifatida shakllantirishdir. An'anaviy "o'qituvchi – monolog – o'quvchi" modeli passiv bilim olishga asoslangan bo'lib, ko'pincha o'quvchilarning ijodiy va analitik qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniyatini cheklaydi. Shu nuqtai nazardan, dialog – o'qituvchi va o'quvchi, talabalar o'rtasidagi jonli fikr almashinuvi – ta'lim jarayonining markaziga chiqarilishi lozim bo'lgan asosiy omil hisoblanadi. Dialogning metodologik asoslarini chuqur o'rganish, ta'lim tizimida bilish faoliyatida uni modellashtirish va amaliy mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Adabiyotlar sharxi. Garchi erotetik mantiq XX asrda formal mantiq sifatida shakllangan bo'lsa-da, uning ildizlari antik davrga, xususan Sokrat va Aflotun dialoglariga borib taqaladi. Sokratning mayevtika usuli (inson o'z ichidagi bilimlarni savol-javob yo'li bilan "tug'ish") va Aflotunning dialektika (so'z orqali fikrlash) metodlari bu boradagi dastlabki asoslarni tashkil qiladi. Sokrat va Aflotun bilan bir qatorda, Sharq falsafasi, xususan Abu Nasr Forobiy va Abu Ali Ibn Sinoning ijodida savol-javob mantiqi muhim o'rin tutgan. Garchi ular ushbu masalaga

alohida risola bag'ishlamagan bo'lsalar-da, asarlaridagi "so'z", "munozara", "savol", "javob" atamalari muhim falsafiy va metodologik ma'noni anglatadi.

MDH davlatlarida dialog dialektik tafakkur uslubining asosi ekanligi V.S.Bibler, M.Buber, M.Baxtin, N.O.Losskiy, K.Popper, S.Frank, Yu.Xabermas, hamda O.Ye.Shuls[1] kabi olimlarning tadqiqotlarida ochib berilgan. S.Frank fikricha "Men" va "Sen" munosabatlarida "har qanday bilish oldidan ba'zi bir o'zaro harakat yoki muomala faoliyatining almashishi shakllanadi"[2]. Bu fikrda "Men" va "Sen" orasida bo'ladigan dialogning murakkabligini tushuntirishga harakat, ularning davomiyligi va dinamikasini saqlashga urinishi namoyon bo'ladi. M.Baxtin esa, dialogning tizimlilik jihatini shakllantirib katta, o'rta va kichik dialog shakllarini tahlil qilgan[3].

O'zbekistonda B.To'raev sinergetik tafakkurning murosa madaniyatini shakllantirishdagi rolini,[6]. B.Karimov emanatsiyaning zamonaviy ilmiy muloqot vositasi sifatidagi ahamiyatini,[7]. M.Sharipov va D.Fayzixodjaeva mantiqiy tafakkurning dialog jarayonida xatolarsiz tushunish imkoniyati sifatidagi rolini,[8]. I.Saifnazarov "ilmiy ijodni o'zaro muloqot va dialog sharoitidagi jarayon" ekanligini[9], Z.Davronov barkamol avlodning o'z o'zi bilan dialogning fikr teranligini ta'minlashdagi rolini,[10]. A.Saidov dialogning ijodiy faoliyatni takomillashtirishdagi rolini[11]. E.Izzetova ilmiy bilimning dialogda konsensusga erishish vositasi ekanligini,[12]. N.Shermuxamedova sub'ektlarning bir-birini o'zaro tushunishi aynan dialogda amalga oshishi"ni[13]. Demak, har qanday vaziyatda ikki yoki undan ortiq kishilarning birgalikdagi suhbatini ijtimoiy munosabatlarni tashkil etishning asosiy vositasidir. Dialog fanning ichki demokratik mexanizmi, ya'ni dalillarni sinash, tushunchalarni aniqlash, xato va g'arazdan tozalash hamda yangi ma'noni "birgalikda qurish" jarayoni ekanligi quyidagi falsafiy izoh bilan mustahkamlanadi, dialog ikki yoki undan ortiq sub'ektlar o'rtasidagi interaktiv muloqot bo'libgina qolmay, ma'no yaratish va haqiqatni izlashning tarixiy shakllangan universal metodidir. Dialogning metodologik ahamiyati shundaki, u shaxslararo fikr ma'nosini anglashuvini ta'minlaydi, bilish jarayonida yangi mazmun yaratilishiga sharoit yaratadi, ijodiy tafakkurni tanqidiy-refleksiv tartibga soladi, ilmiy haqiqatga yaqinlashishning axloqiy va mantiqiy qoidalarini shakllantiradi. Demak, dialog ilmiy ijodiy faoliyatning falsafiy-metodologik omili, uning tarixiy taraqqiyoti esa inson tafakkuri madaniyatining uzluksiz rivojlanish yo'lidir.

Muhokama va natijalar. Dialogning tarixiy tahlili shuni ko'rsatadiki, u turli davrlarda turli vazifalarni bajargan, ba'zan demokratiya va tenglikni mustahkamlagan, masalan Sokratcha dialog, ba'zan ritorik monologlashuvga moyil bo'lgan ommaviy pand-nasihat, bir tomonlama nutq kabilardir. Abu Nasr Forobiyning "Fozil odamlar shahri" va "Ilmlar tasnifi"da muloqot jamiyat barqarorligi va ilm tarqalishining sharti sifatida ko'rilishi ochib berilgan[14]. Forobiy

ijodida dialog fozillikka yetaklovchi ijtimoiy mexanizm bo'lib, unga ko'ra inson "yolg'iz" komil bo'la olmaydi, u komillikka hamkorlik va muloqot orqali yaqinlashadi. Ibn Sino merosida dialog mantiq bilan mustaxkam bog'lanadi "tasavvur" va "tasdiq" kategoriyalari fikr almashishda ma'noni anglash va hukmni asoslash vazifasini bajaradi, demak, dialog ilmiy haqiqatga yaqinlashish uchun nutq madaniyati, dalil izchilligi va bahs etikasiga suyanmog'i lozim. Shu ma'noda, muallif fikricha, Sharq an'anasida dialog faqat gapirish emas, fikrni tarbiyalash texnologiyasidir. Shu nuqtai nazardan XX asr falsafasida dialog tushunchasi yangi bosqichga ko'tariladi, M.Bubering "Men va Sen" munosabati dialogni inson mavjudligining asl mezoni sifatida asoslaydi, M.Baxtin esa dialogizm va polifoniya g'oyasi bilan ma'noning bir ovozda emas, ko'p ovozli o'zaro ta'sirda shakllanishini asoslagan[15], bu jarayonda dialog ijodning ichki qonuniga aylanadi, har bir g'oya javob va qarshi so'z imkoniyatini o'z ichiga olgandagina teranlashadi. Yu.Xabermasning kommunikativ aql konsepsiyasida esa dialog "kelishuv" va "ijtimoiy hamjihatlik"ning ratsional sharti sifatida asoslanadi, haqiqat, adolat va samimiylik mezonlari dialogli muhokamaning metodologik saralash vazifasini bajaradi. Baxtinning ta'kidlashicha, "haqiqat" bir necha teng huquqli pozitsiyalarning dialogida vujudga keladi. Dialog - bu ma'lumotlarni bir tomondan ikkinchi tomonga o'tkazish vositasi emas, balki mustaqil dunyoqarash va qarashlarning o'zaro ta'siri jarayonidir. Ushbu falsafiy pozitsiya ta'lim jarayonida dialogik interaktsiyaning muhimligini asoslaydi. Ilmiy ijodning dialog jarayonidagi transformatsiyasi ontologik jihatdan inson va borliq o'rtasidagi faol munosabatni chuqurlashtiradi, gnoseologik jihatdan bilish individual tajribadan jamoaviy anglash darajasiga ko'tariladi, metodologik jihatdan esa fan taraqqiyoti tanqidiy muloqot, paradigmalar raqobati va fanlararo integratsiya asosida ta'minlanadi. XXI asr fanining barqaror rivoji aynan shu dialogik ontologiya va gnoseologiyaga tayanadi, zero ilmiy ijodning asl mohiyati dialogda, dialog esa bilish va mavjudlikning universal shakli sifatida namoyon bo'ladi.

Sun'iy intellektdan maqsadli foydalanish inson fikrlashini tezlashtirishi va ilmiy izlanishni samarali qilishi mumkin, ammo unga to'liq suyanish tanqidiy fikrlashning susayishi, ijodiy mustaqillikning pasayishi va ma'naviy-axloqiy buzilishlar xavfini kuchaytiradi. Fikrimizcha, sun'iy intellekt bilan dialog jarayonida klassik "Men va Boshqa" munosabati yangi shaklga o'tadi, unga ko'ra "Boshqa" endi inson emas, balki algoritmlar tizimi bo'ladi, shu orqali inson ongining muloqot doirasi kengayadi va inson o'z tafakkurini texnika bilan qorishtiruvchi sub'ekt sifatida yangi ontologik holatga kirish ehtimoli paydo bo'ladi. Shu bois, dialog modellari va tanqidiy tahlil usullari bir-birini to'ldiruvchi mexanizm sifatida talqin etiladi, dialog fikrlar maydonini yaratadi, tanqidiy tahlil esa sun'iy intellekt taklif etayotgan g'oyalarning haqiqatga mosligi, dalillanganligi va ijtimoiy oqibatlarini tekshirish imkonini beradi. Sun'iy intellektda

dialog modellarini qo'llash bu faqat muxandislik yechimi emas, balki inson bilishi, ong, ijod va mas'uliyat haqidagi tasavvurlarni qayta qurishga olib keluvchi falsafiy jarayondir, sun'iy intellekt orqali qayta ishlangan bilim inson ongida ma'no kasb etishi va inson tomonidan axloqiy-nazariy nazoratda ushlab turilishi zarur. Bilish faoliyatning mohiyati va uning rivojlanishida dialog modellarining falsafiy metodologik jihatlari asoslangan, яъни, ilmiy ijodiy faoliyat inson tafakkurining yuksak ko'rinishi sifatida haqiqatni aniqlash, yangi bilimlarni yaratish va mavjud bilimlarni tanqidiy tahlil etish jarayonini qamrab oladi. Bu faoliyat faqat individual aqliy mehnat emas, balki intersub'ektiv munosabatlar, ya'ni olimlar, ilmiy maktablar va fan yo'nalishlari o'rtasidagi muloqot bilan chambarchas bog'liq jarayon bo'lib, bu jarayonda tushunish va tushuntirish dialogsiz amalga oshmaydi, shu ma'noda ilmiy ijod ham dialog muhitidagina shakllanadi va barqaror ilmiy natijaga aylanadi. Dialog fanda oddiy fikr almashish emas, balki haqiqat mazmunini jamoaviy ravishda yaratish mexanizmi hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, ilmiy nazariyalarning shakllanishi va sinovdan o'tishi muloqot madaniyati, fikrlar qarama-qarshiligi va tanqidiy muhokama sifati bilan belgilanadi.

Dialogning ijodiy faoliyatdagi amaliy va axloqiy vazifalarini yangi falsafiy mezonda qayta tahlil etish, dialogni insonning ma'naviy mas'uliyati, ilmiy jamoalarda intellektual muloqot madaniyati va ijodiy fikrlashning intersub'ektiv asoslari bilan bog'lovchi yaxlit nazariy yondashuvni shakllantirish, shu orqali dialogning bilishdagi transformativ kuchini ontologik, gnoseologik va etik nuqtai nazardan tadqiq etish, dialogning ijtimoiy va axloqiy mohiyatini kengaytiruvchi, innovatsion sinergiyani ta'minlovchi, inson inson va inson-sun'iy intellekt muloqotlarida ma'no hosil qilish jarayonlarini tushuntiruvchi yangi falsafiy modellar ishlab chiqish va ushbu modellardan keyingi ilmiy izlanishlarda, neyroetika, ijod psixologiyasi, kommunikativ falsafa va metodologiya sohalarida nazariy asos sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

K.Popperning falsifikatsiya tamoyili dialogning metodologik ahamiyatini oshiradi, chunki fan nazariyalarni tasdiqlashdan ko'ra, ularni rad etishga urinadi, tanqiddan muvaffaqiyatli o'tgan g'oyalar muayyan vaqtgacha ilmiy haqiqat maqomini oladi[16]. Demak, tanqid dialogning asosiy omili sifatida ilmning ichki harakatlantiruvchi kuchi vazifasini bajaradi. Shu nuqtai nazardan dialog modellari bilish jaraynida quyidagi metodologik vazifalarni bajaradi, birinchidan dialog bilimlarning intersub'ektiv shakllanishini ta'minlaydi, ya'ni bir tadqiqotchining g'oyasi boshqalarning e'tirozi, izohi va taklifi bilan boyiydi, ikkinchidan tushunish va talqin qilishni jamoaviy jarayon sifatida shakllantiradi[17], yondashuvda tushunish dialogda yuzaga keladi, uchinchidan taklif etilgan farazlarning kuchli-kuchsiz jihatlarni ochib, mantiqiy saralashni ta'minlaydi, to'rtinchidan turli metodlarni bir ilmiy maydonda to'qnashtirib,

fanlararo uyg'unlik va tadqiqot chuqurligini kuchaytiradi, beshinchidan aksiologik jihatdan ilmiy hamjihatlik, muloqot etikasi va haqiqatni tekshirish madaniyatini shakllantiradi. Shu bilan birga, dialogning metodologik ahamiyati faqat olimlar o'rtasidagi muloqot bilan cheklanmay, fanlarning o'zaro intellektual hamkorligi sifatida ham namoyon bo'ladi.

Seminar mashg'ulotida savollarni turli maqsadlar va usullar asosida tasniflash mumkin.

Quyida asosiy savol turlaridan foydalanish namunasi keltirilgan:

Savollar turi	Tavsifi	Maqsadi
<i>Ochiq (open-ended) savollar</i>	Bir nechta mumkin bo'lgan javobga ega bo'lgan, yakuniy javobni oldindan belgilamaydigan savollar.	Tanqidiy fikrni rivojlantirish va kreativ javoblarni rag'batlantirish.
<i>Yopiq (closed) savollar</i>	Faqat "ha" yoki "yo'q" kabi qisqa javobni talab qiladigan savollar.	Asosiy tushunchalarni tekshirish va test qilish.
<i>Gipotetik savollar</i>	"Agar... bo'lsa, nima bo'ladi?" shaklidagi faraziy savollar.	Induktiv va deduktiv fikrlashni rivojlantirish.
<i>Sokrat savollari</i>	Tizimli, intizomli va chuqur - asosiy tamoyillar, qonunlar va nazariyalarni tekshirishga qaratilgan savollar.	Asosiy fikrlarni ochish, ziddiyatlarni aniqlash.
<i>Protsessual savollar</i>	Fikrlash jarayoniga qaratilgan savollar "Nima uchun bunday deb o'ylaysiz?".	Meta-kognitiv ko'nikmalarni rivojlantirish.

Xulosa. Yuqoridagilardan xulosa qiladigan bo'lsak, dialog fenomeni falsafiy tafakkur tarixida qadimgi yunon falsafasidan boshlanib, zamonaviy ilmiy tadqiqot institutlariga qadar uzluksiz rivojlanib kelgan murakkab ma'naviy-intellektual jarayon bo'lib, uning ontologik, gnoseologik va metodologik jihatlari har tomonlama tahlil qilinishi natijasida u faqat muloqot shakli emas, balki falsafiy bilish, ma'rifiy taraqqiyot, ijtimoiy munosabatlar va ilmiy ijodiy jarayonlarning ajralmas qismi ekanligi asoslangan. Яъна, dialog fan, ijtimoiy hayot va insonning bilish faoliyatida muhim falsafiy-metodologik ahamiyatga ega jarayon bo'lib, u bilimlarni yaratish, ilmiy fikrlashni rivojlantirish, fanlararo hamkorlikni ta'minlash va barqaror taraqqiyotni shakllantirishning muhim kafolati sifatida namoyon bo'ladi. Zamonaviy dialog va

kommunikatsiya metodologiyalari ilmiy jarayonlarning yangi paradigmasini belgilab beradi, ilmiy va ijtimoiy jarayonlarda dialogning funksional va nazariy ahamiyatini ochib berish hamkorlik, global muammolarni hal etish va turli sivilizatsiyalar o'rtasidagi bog'liqlikni chuqur ilmiy anglashda dialog muhim ahamiyat kasb etadi. Fanlararo dialogning mohiyati va yangi bilim yaratishdagi rolining tizimli tahlili axborot texnologiyalari yordamida dialogni rivojlantirishning ahamiyati, raqamli muhitda dialog modellarini qo'llash ilmiy bilish faoliyatida samaradorligini oshirishning muhim mezonlarini belgilab beradi. Ilmiy bilish faoliyatida tanqidiy tahlil va fanlararo muloqotni rivojlantirishda dialogning metodologik vosita sifatidagi ahamiyati yuqori ekanligi va dialog intellektual asos sifatida ilmiy innovatsiya va ijodiy yondashuvlarni shakllantirishda hal qiluvchi o'rin egallaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Бахтин М. М. Собрание сочинений. Т.6. «Проблемы поэтики Достоевского», 1963. Работы 1960-х 1970-х гг.-Москва.: Изд-во «Русские словари», «Языки славянской культуры, 2002.-302-303 с.
2. Франк С.А. Сочинения. Серия: Классическая философская мысль.-Минск: Харвест, 2000.-352 с.
3. Бахтин, М.М. Проблемы поэтики Достоевского.Москва.: Советский писатель, 1963. С-62
4. Тураев Б.О., Каримов Б.Р.Синергетика: моҳияти, қонуниятлари ва амалиётда намоён бўлиши. Самарқанд, 2017.-410 б.;
5. Тўраев Б.О. Ижтимоий фалсафа, социология, миллий ғоя ва публицистика. Танланган асарлар 2 жилд. Тошкент. А.Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2015.-360 б.
6. Каримов Б. Эманация концепцияси ва ҳозирги замон илмий дунёқараши.-Тошкент: ТДТУ, 2001
7. Шарипов М., Д.Файзиходжаева. Мантиқ тарихи ва назарияси. ЎМК.-Тошкент.: ЎЗМУ. 2016.
8. Саифназаров И. ва бошқалар. Илмий ижод методологияси. Ўқув қўлланма. Янги аср авлоди. Тошкент 2004 йил. 190 бет.
9. Давронов З. Баркамолликка даъват мактублари.-Тошкент.:“Тамаддун” МЧЖ,2007,224 б.
10. Саидов А. Иқтисодиётда инновация жараёнларини бошқариш масалалари.-Тошкент: “Иқтисод-молия”, 2020.-Б. 70-85.

11. Иззетова, Э. Философия: ўқув-услубий мажмуа. Т.: Шарқшунослик, 2012. – 340-346-б.
12. Шермухамедова Н.А. Илмий тадқиқот методологияси.-Тошкент: Фан ва технология, 2016.-520 б.
13. Форобий А.Н. Илмлар таснифи.-Тошкент: Гафур Ғулом номидаги нашриёт, 2000.-120 с.;
14. Форобий А.Н. Фозил одамлар шаҳри / тарж.: Абдусодиқ Ирисов, Маҳкам Маҳмудов, Урфон Отажон. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2022. -320 б.
15. Бахтин, М.М. Проблемы поэтики Достоевского.Москва.: Советский писатель, 1963. С-62.
16. Поппер К. Бедность историцизма.-Москва.: Издательство «Прогресс», 2003.-С. 256.